



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI**

# **BOSHLANG'ICH TA'LIMGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI**

**XALQARO ILMIIY-AMALIIY ANJUMANI**

## **MATERIALLARI**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ  
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА РАҚАМЛИ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ  
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА  
РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

**ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН**

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021 йил, 1 -2 апрель**

**Бухоро - 2021**

Shu matn ostidagi “Chiranma g‘oz, hunaring oz” maqoli uni tushuntirishga yordam beradi. Maqtanchoqlik nokamtarlik ekanligi, odobli bolani birov maqtashi matn tahlili orqali tushuntirilib beriladi.

Avloniy intizomni inson xarakterini tarbiyalovchi, mukammallashtiruvchi manba, deb biladi hamda unga doim rioya qilish kerakligini ta’kidlaydi: “Intizom qiladurg‘on ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yashay olmas edilar. Har bir millatning taraqqiysi va toliysi ishlarini vaqtida, nizomdan chiqarmay tartibi ila yuritilmoqqa bog‘ilqdur... Chunki tartib va nizomni rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o‘zlari parishon bo‘lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning ishlari yerda, o‘zlari tinch va rohatda o‘tkarurlar”.

Avloniyning har bir qarashlarida, fikrlarida kishini ezgulik sari yetaklovchi, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi insoniy fazilatlarini kamol toptirishga xizmat qiluvchi g‘oyalar mavjud. Ayniqsa, Vatan tuyg‘usi, uni sevish, uning dardi bilan yashash, uning baxtidan quvonish singari samimiy tuyg‘ular adibning har bir nasriy va nazm yo‘lida yozilgan asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1986. -126 b.
2. G‘ulomov A., Ne‘matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995.
3. G‘ulomov A. Q., Qobilova B.Sh. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma) . –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995. 160 b.
4. Abdullayeva Q., Nazarov K. Savod o‘rgatish darslari. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.
5. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda nutq o‘stirish. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1980. 23-28-b
6. Abdullayeva Q. Rahmonbekova S. Ona tili darslari (1-sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1999. 13-16-b
7. Abdullayeva Q. va b. Savod o‘rgatish metodikasi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.

### **“MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASI” FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

**D. Sh. Sidiqova**  
*BuxDU tayanch doktoranti*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada “Matematika o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kompetentlilik, bilim, ko‘nikma, malaka, kabi kompetensiya, pedagogik mahorat.

**Аннотация.** В статье описана методика формирования профессиональной компетентности студентов при преподавании предмета “Методика обучения математике”.

**Ключевая слова:** компетентность, компетентностный подход, компетентность, знание, способность, малака, профессиональная компетенция, педагогические навыки.

**Annotation** This article describes the methodology of formation of professional competence of students in teaching the subject “Methods of teaching mathematics”.

**Keys words:** competence, competency approach, competence, knowledge, ability, qualification, professional competence, pedagogical skills.

Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagog xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

“Matematika o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda talabalarning bu fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish o‘qituvchining asosiy vazifalardan biridir. Bu borada talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va shu bilan birga kompetensiyasini ham inobatga olish zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, ta’lim jarayoning mohiyati - talabalarlarning turli hayotiy vaziyatlarda, kundalik turmushda vujudga keladigan muammolarni avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalari va tajribalari asosida hal qilish layoqatlarini (qobiliyatlarini)

rivojlantirishdan iborat bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida talabalarga nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni berish, balki ularni kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarida qo‘llay olish layoqatlarini (kompetensiyalarlarni) shakllantirishni ko‘zda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetensiyalar davlat va jamiyatning ta‘lim tizimi oldiga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasi hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi ta‘lim muassasasi bitiruvchisining ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam berishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, kompetensiyaviy yondashuv ta‘lim tizimi oldida turgan shu kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

**Kompetensiya** – fan bo‘yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir.

**Kompetentlilik** – lotincha so‘z bo‘lib, competens – layoqatli, qobiliyati bor degan ma‘noni anglatadi. Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim–talabalarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘limdir.

O‘qituvchi talabaning ichki dunyosiga kira olishi, talaba shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o‘qituvchi talabaning ruhiyatiga ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

O‘qituvchida nutq o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

O‘qituvchi obro‘si – talabalarga bevosita emotsional-irodaviy ta‘sir ko‘rsatish va shu asosda obro‘ qozona olishdir. Obro‘ faqat shu asosdagina emas, balki o‘qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig‘indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlariga, shuningdek, talabalarga ta‘lim hamda tarbiya berish mas‘uliyatini his etishga, o‘zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o‘quvchilarga yetkaza olish kabilarga ham bog‘liq.

O‘qituvchi kasbiga xos bo‘lgan xislatlar, ya‘ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o‘z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko‘nikmalar asosida rivojlanadi.

O‘qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta‘lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta‘lim tizimida asosiy o‘rin egallagan malaka oshirish o‘quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo‘nalishlar berishga imkon beradi.

#### **O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi turlari quyidagilardan iborat:**

1. Kasbiy
2. Shaxsiy
3. Umuminsoniy
4. Madaniy
5. Maxsus

#### **Kasbiy kompetensiya:**

- pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo‘lish;
- o‘z ustida ishlash;
- ta‘lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o‘rnatish;
- talabalar ehtiyojini anglay olishi;
- talabalarda motivatsiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- ta‘lim muhitiga yangilik kiritishi;
- o‘z fanini mukammal bilishi;
- xorijiy tillardan birini bilishi.

#### **Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlari:**

1. O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni angling;
2. O‘zini rivojlantirish maqsad va vazifasini belgilash;
3. O‘zini namoyon etish va kamchiliklarni tazatish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., To‘raqulov X.A., Haydarov M. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T., 2008-y.

2. Temurov S.Y. Bo'lajak matematika o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari. –T., 2014-y.

3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

## ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРДА ЁЗУВ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Р. А. Қўлдошев

БухДУ ўқитувчиси

**Аннотация.** Ушбу мақолада бошланғич синф чапақай ўқувчиларини ёзувга ўргатишга доир фикр ва мулоҳазалар юритилган.

**Таянч тушунчалар:** парта, чапақай, ўнақай, синф, ўқувчи, масофа, ёзиш, ўқиш

**Аннотация.** В этой статье представлены идеи и отзывы о том, как научить учеников начальной школы письму.

**Ключевые слова:** письменный стол, левша, правша, класс, ученик, дистанция, письмо, чтение

**Abstract.** This article provides ideas and feedback on how to teach elementary school students to write.

**Key words:** desk, left-handed, right-handed, class, student, distance, writing, reading

Бошланғич таълимни ислоҳ қилиш, уни илмий асосланган таҳкурсилар билан қайтадан таъминлаш борасидаги асосли фикрлар юртбошимиз томонидан ўртага ташланган эди. Шундан кейин бир қатор қонун, қарор ва кўрсатмалар эълон қилинди ва уларни амалга ошириш ишлари республикамиз таълим муассаларида кенг қулоқ ёзди. Айни дамда бу борада муайян чоратadbирлар режалаштирилиб, муайян ишлар амалга оширилган бўлса-да, ҳали ҳал этилиши лозим бўлган долзарб масалалар талайгина.

Кузатишларимиз шундан далолат берадики, бошланғич синф, хусусан, биринчи синф ўқувчиларининг саводини чиқаришда уларнинг ёши ва жисмоний тайёргарлиги ҳам катта роль ўйнайди. Масалан, ёзиш ва ўқиш малакаларининг шакллантиришнинг биринчи зиналарида бола ёзиш ва ўқиш машқларини бажариш учун ўзининг бор кучини – жисмоний ва рухий имкониятларини сарфлайди: ёзув жараёнида ўқувчининг ҳамма мускуллари, айниқса қўл ва елка мускуллари, бел ва оёқ томирлари ҳамда асаб торлари анча таранглашади. Шунинг учун ўқитувчилар бу жараённи сезгирлик билан кузатадилар, бармоқ ва қўл мускулларининг ҳаракат тезлиги, партада тўғри ўтириши, умуман ўқувчиларнинг жисмоний ва рухий ҳолати ҳамда тайёргарлигини ҳисобга оладилар.

Табииyki, ёзиш ва ўқиш жараёнлари дастлабки босқичларда жисмоний ва рухий сиқилишлар остида ўтади. Бола биринчи мушқилот ва муваффақиятсизликни қийинчилик билан ҳазм қилади. Шунинг учун жисмоний ва рухий зўриқишлар ҳам кутилган самарани бермайди. Ўқувчи ўз хатосини сезади ва тушунади, лекин ўқувчисининг йўл – йўриқлари билан ҳам уни бартараф этолмайди. Бундай ҳолларда ўқитувчи ўқувчини руҳияти – кайфиятини кўтариш учун турли хил лаҳзалик шўх ўйинлар ташлил этади. Бундай лаҳзалик жисмоний ва рухий танаффуслар боланинг рухий зўриқишини мўтадиллаштиради ва боланинг мавзунини ўзлаштириш, қабул қилиш даражасини оширади. Айтганларимиз ўша вақт ўз самараси – мевасини берадики, бошланғич синф ўқувчиси, хусусан биринчи синф ўқувчисининг, таълим олиши учун ҳама ташкилий ва методик ишлар аъло даражада тайёрланган бўлиши лозим. Ташкилий ва методик ишларга нималар киради? Келинг, шу ҳақда баҳслашайлик!

Мақтаб ўқувчиси ўзининг кўп вақтини дарсхонада қуйидаги ўқув қуроллари билан боғлиқ ҳолда ўтказади: парта, синф тахта (доска)си, дафтар, ручка ва бошқалар. Шундай экан ўқув қуролларининг гигиеник ва педагогик талабларга жавоб бериши катта аҳамиятга эгадир. Таъкидлаганимиздек мактаб ўқувчилари ўзининг жуда кўп вақтини партада ўтириб ўтказади. Шунинг учун бу масъулиятли даврда ўқувчиларни қўйилган гигиеник талабларга амал қилишга ўргатиш керак.

Иш қобилияти узоқ вақтгача пасаймай туришини ҳамда болалар қадди-қоматининг тўғри ривожланиши, ўқиш даврида кўзнинг салбий таъсирланмаслигини таъминлаш мақсадида синфларни гигиена талабларига жавоб берадиган парталар билан жиҳозлаш муҳим аҳамиятга эга. Хусусан чапақай болаларга бунинг аҳамияти ниҳоятда каттадир. Биринчи навбатда устоз–муаллим ўз шогирдининг мўтадил ишлаши учун зарур шарт-шароит яратиб бериши лозим. Ўқитувчи унга ажратилган синфхонани ва ундаги парталарни бўлажак шогирдлари ишлаши учун мос келиш-

U.Sh. Tog'ayeva. LOYIHAVIY TA'LIM VOSITASIDA "ONA TILI O'QITISH METODIKASI" MODULINI TAKOMILLASHTIRISH .....	120
M. R. Hamroyeva, O. A. Subhonova. ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHGA OID METODIK KO'RSATMALAR ..	121
O. III. Axmadov. БУХОРО АМИРЛИГИДА АНЪАНАВИЙ БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИ ВА УНИНГ ИНҚИРОЗИ .....	123
D. S. Sidiqova, G.A. Jabborova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH .....	125
U.Sh. Tog'ayeva, M.Sh.Xodjayeva. BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA FANLARARO ALOQADORLIK O'RNATISH.....	126
Sh. N. Qurbonova, N. Razzoqova. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA –TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING YAXLIT TIZIMI SIFATIDA .....	128
Sh. Y. Yusufzoda, D. F. Safarova. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILAR MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI .....	129
Sh. Y. Yusufzoda, F T. Egamqulova. GRAFIK MODELLARDAN FOYDALANISH USULLARI ORQALI MASALA YECHISH METODIKASI.....	131
Sh. Y. Yusufzoda, Z. Sh. Narzullayeva. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA HARAKATGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI .....	134
M. Sh. Narzillayeva. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA LINGVODIDAKTIKANING O'RNI .....	135
N. K. Rajabova, M. I. Kamolova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISHNING METODIK ASOSLARI .....	138
N.K.Rajabova. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING FAZOVIIY TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI .....	139
S. R. Ismatov, Sh.Sh. Shukrullayeva. SAVOD O'RGATISH DAVRI YOZUV DARSLARINI O'RGATISH USULLARI.....	140
O'.M.Olloqova, M.O'.Zaripova. НИКОYA O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH .....	142
III.Хафизов. БОШЛАНГИЧ SINFLARDA ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСИНING ТУЗИЛИШИ ВА УНИ ЎТКАЗИШ МЕТОДИКАСИ .....	144
N.B.Adizova, F.Ibrohimova. A.AVLONIIY SHE'RLARINING BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'RGANILISHI.....	146
D. Sh. Sidiqova. "MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI" FANINI O'QITISHDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	148
P. A. Kuldoshov. ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРДА ЁЗУВ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	150
N. O. Safarova, H. G. Jumayeva. SAVOD O'RGATISH DAVRIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH.....	153
N.A. Raximova, D.Rustamova. BOSHLANG'ICH SINFLAR TARBIYA TIZIMIDA INNOVATSIYALAR	155
D. Q. Mirzayeva. O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA LUG'AT USTIDA ISHLASH .....	157
F. M.Xalilova., N. M.Jalilova. BOSHLANG'ICH SINFLAR TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA INDIVIDUAL VA TO'GARAK ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	160
Sh.Y. Yusufzoda, S.Sh.Ortiqova. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TAFAKKUR VA MATEMATIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	163
N.B.Adizova, S.Farmonova. SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL O'QISH KO'NIKMAALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....	164
M. M. Юлдашева. РАЗВИТИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ.....	166
Nurova Y.U. O'ZBEK XALQ PAREMALARIDAGI ETNONIMLAR OMONIMIYASI.....	170
D. A. Axmadova. TIBBIY METAFORALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	173
S. A. Qodirova, D. Askarova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA "ZARBULMASAL" MAVZUSINI O'TISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALAR.....	176
M.X.Хакимова, Д. Гиёсова. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МАТЕМАТИК РИВОЖЛАНИШ МУАММОСИНИ ЛОЙИХАЛАШ .....	177
S. A. Qodirova, D. Askarova. VOQEBAND ADABIY PARCHALAR.....	179
H. B. Adizova. БУХОРО ТУМАН МИКРОТОПОНИМИЯСИДА ОЙКОНИМЛАРНИНГ ЎРНИ .	182
Қ.М. Ёдгоров. 5-7 СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ИНСОНПАРВАРЛИК ҲИС-ТУЙГУЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИНИНГ МАЗМУНИ .....	184

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.  
Адади 100 нусха. Ҳажми 488 бет. Буюртма 87. 2021.

Бухоро шаҳри, М.Иқбол кўчаси, 11.